O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
NAMANGAN VILOYATI
BOSHQARMASI

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko‘chasi, 105-uy, Tel/Faks: 71-203-11-38, E-mail: namexpert@umail.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich
Sana: 22-05-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

206743 - SONLI

Obyekt nomi: Namangan viloyati Namangan shahar 8-mart ko‘chasi 1-uyda “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalarini o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joy bino inshoootlari” qurish va rekonstruksiya qilish	
Buyurtmachi:	OBID FAYZ-BM MCHJ
Bosh loyihachi:	"ULTRA GROUP" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	000734

1. Loyihalash uchun asos.

Namangan shahar Qurilish bo‘limining 11.12.2021 yildagi 1714401-25355-sonli ruxsatnomasi.

Namangan viloyati Arxitektura shaharsozlik kengashining 3.11.2023 yildagi 45-sonli yig‘ilish bayoni.

Buyurtmachi tomonidan tomonidan tasdiqlangan va Namangan viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshirig‘i.

Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 12.01.2022 yildagi 1714-1714401-34876-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig‘i.

Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari.

“NEW GEO PROECT” MCHJ tomonidan 2023 yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosa.

Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishning texnik shartlari va muhandislik tarmoqlarini nazorat qiluvchi manfaatdor tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan materiallar.

Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 2023 yildagi PR12-2023-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. “Ishchi loyiha”ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Ko‘p qavatli turar-joy binosi. Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, suv va oqava suv ta’minoti, elektr yoritish, gazlashtirish, yong‘in signalizatsiya, videokuzatuv va kuchsiz tok qismlari.
- Bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.
- “Hududgaz Namangan” GTF tomonidan 2023 yilda ishlab chiqilgan tashqi gaz ta’minoti ishchi loyihasi.
- Kichik me’moriy inshootlar (25 m3 hajmli yong‘inga qarshi suv hovuzi, ayvon).
- Qurilishni tashkil etish loyihasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Ko‘p qavatli turar-joy binosi Namangan shahar 8-mart ko‘chasida joylashgan bo‘lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to‘g‘ri keladi. Zilzilaga bardoshliligi bo‘yicha – 8 ball. Tashqi havo harorati – 14os. Me’yoriy qor yuklamasi – 0,50 kPa va shamol yuklamasi – 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 7,3-7,4 metrgacha) asos bo‘lib xizmat qiladi. Yerning seysmik holati bo‘yicha toifasi – II. Cho‘kuvchanligi bo‘yicha cho‘kmaydigan tuproq turiga to‘g‘ri keladi. Yer osti suvlari 8 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relefi – notekis.

3.2.Bosh reja.

“OBID FAYZ-BM” MCHJ ning 2120 m2 hududida joylashgan: mavjud bino hamda loyihalanayotgan ko‘p qavatli turar-joy binosi, 25 m3 hajmli yong‘inga qarshi suv hovuzi, ayvon – 2 dona, bolalar maydonchasi, sport maydonchasi, chiqindi to‘plash shaxobchasi, avtotutrargoh. Yer maydonining chegaralari: shimoldan – ma’muriy bino bilan, janubdan – I.Karimov ko‘chasi bilan, sharqdan – elektr tarmoqlari hududi bilan, g‘arbdan – ma’muriy bino bilan. Hudud obodonlashtiriladi va ko‘kalamzorlashtiriladi.

3.4. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Qo‘p qavatli turar-joy binosi.

Bino – 9 qavatli, yerto‘lali, karkasli, gazobeton o‘zaklangan bloklardan va yaxlit quyma temir-betondan, uchta bir-biriga yopishgan to‘g‘ri to‘rtburchak shakllarni tashkil etib, “A-J” va “3-6” o‘qlar bo‘yicha 20,0mx15,0m o‘lchamda, “B-J” va “2-3” o‘qlar bo‘yicha 15,6mx6,0m, “V-J” va “1-2” o‘qlar bo‘yicha 14,0mx3,0m o‘lchamda, alohida yerto‘la va 1-qavatda qo‘shimcha “G-J” va “1/1-1” o‘qlar bo‘yicha 11,0mx3,0m o‘lchamli blok qurish ko‘zda tutilgan, yerto‘la xona balandligi – 3,5m, 1-qavat xonalar balandligi – 4,0m, 2÷9 qavat xonalar balandligi – 3,0m.

Konstruktiv yechimi.

Poydevor – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Yerto‘la devorlar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V15.

Devorlar (tashqi) – gazobeton bloklardan, 300 mm qalinlikda.

Diafragmalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Pardadevor – gazobeton bloklardan.

O‘zaklar – metall burchaklardan.

Ora va tomyopmalar – yig‘ma temir-beton plita va yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V20.

Tom – yog‘och stropila va reykali to‘qima asosida profnastil qoplama.

Zinapoyalar – yaxlit quyma temir-betondan, beton markasi V25.

Derazalar – plastik profil.

Eshiklar – MDF, alyumin profil, metall.

Pol – laminat, keramik, keramogranit, beton.

2. 25 m3 hajmli yong‘inga qarshi suv hovuzi, ayvon – 2 dona.

Ob’ektga avvaldan ishlab chiqilgan va individual loyihalar bog‘langan.

3. Bolalar maydonchasi, sport maydonchasi, chiqindi to‘plash shaxobchasi.

Zavodda ishlab chiqarilgan tayyor jixozlari o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan.

Ichki muhandislik tarmoqlari.

Isitish va shamollatish.

Issiqlik ta’minoti manbai gazga ishlaydigan devorga mahkamlanadigan isitish qozonlari hisoblanadi. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchisi T1=90°, T2=70°s parametrlarga ega bo‘lgan suv bo‘lib, isitish tizimi ikki quvurli tizim etib loyihalangan. Tizimdan havoni chiqarib tashlash ta’minlangan bo‘lib, bimetall turdagi radiatorlar isitish asboblari sifatida qabul qilingan. Isitish suvo‘tkazgichlari polipropilen quvurlardan tashkil topgan. Shamollatish tabiiy va mexanik turtki bilan ta’minlash nazarda tutilgan. Binolarga havo oqimi derazalar orqali kirishi ta’minlangan.

Ichimlik va oqava suv ta’minoti.

Binoga xo‘jalik-ichimlik, issiq suv, oqavasuv hamda ichki yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmoqlari tizimi loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar uchun turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa va po‘lat quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti uchun quyoshli suv isitkich qurilmalari nazarda tutilgan.

Elektr qismi.

Elektr ta’minotining ishonchliligi bo‘yicha turar-joy binosi III toifadagi iste’molchilarga mansub. Loyihada 380/220V kuchlanish ishchi yoritish ko‘zda tutilgan. Yoritish svetodiod chiroqlari yordamida amalga oshiriladi. Guruhli yoritish tarmog‘i va quvvatli tarmoq VVGng-380V, magistral tarmoq AVVG-380V kabelda loyihalangan. Loyihada ShRNm turdagi yoritish, PR11 turdagi quvvatli taqsimlash shitlarni o‘rnatilishi hisobga olingan.

Kuchsiz tok va yong‘in signalizatsiyasi.

Loyihada har bir xonadonda televizion antenna tarmog‘i, telefon apparati o‘rnatish uchun texnik imkoniyatlar ko‘zda tutilgan bo‘lib, antenna shtekerlari va telefon rozetkalari o‘rnatilgan. Xonadonlar yong‘inga qarshi signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo‘lib, tizimda qabul qiluvchi-nazorat asboblari, tutunli yong‘in xabarlagichlari va IPR turdagi qo‘l xabarlagichlari qabul qilingan. Shuningdek binoga kirish qismlari videokuzatuv tizimi bilan jihozlangan.

Turar-joy binosi asosiy ko‘rsatkichlari:

Qurilish maydoni	*– 450.0 m2*
Qurilish hajmi	*– 14450.0 m3*
Binoning umumiy maydoni	*– 5898.74 m2*
Xonadon soni	*– 40 dona*
shu jumladan:	
2 xonali	*– 24 dona*
1 xonali	*– 16 dona*

Yong‘in xavfsizligi.

Loyihada binoning o‘tga chidamlilik darajasi o‘tga chidamlilik chegaralari va inshootlarning yong‘in guruhlariga javob berishini ta’minlash ko‘zda tutilgan. Yong‘inni rivojlanishini oldini olish uchun yong‘in signalizatsiyasi tizimi loyihalangan. Binodagi eshiklar odamlarni evakuatsiya qilish yo‘nalishida ochiladi. Chordoq tomining yog‘och konstruksiyalari olovga bardoshlilik va antiseptiklar bilan ishlov beriladi. Hududda 25 m3 hajmli yong‘inga qarshi suv hovuzi qurish ko‘zda tutilgan.

Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorligini ta’minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- 1-qavat pol pol ostiga zichligi γ=35 kg/m3 ga teng qalinligi 40 mm bo‘lgan “penopleks” bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- devorlarga zichligi γ=140 kg/m3, qalinligi 50 mm bo‘lgan bazalt asosli mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- tomga zichligi γ=150 kg/m3, qalinligi 100 mm bo‘lgan mineral paxta bilan issiqlik himoya qatlami (issiqlik himoyasining ikkinchi darajasi);
- derazalar PVX dan qo‘llanilgan;
- tomda 29 dona quyosh panellari (29x0,54 kVt=15,66 kVt), 15 dona quyosh kollektorlarni o‘rnatish ko‘zda tutilgan;
- binoning koridor va kirish joylaridagi yoritgichlar haratkat datchikli svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan;
- hududni tashqi yoritish uchun 17 dona 100 Vt.li quyosh panelli yoritgichlar o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Suv ta’minoti – “Namangan suv ta’minoti” MCHJ Yangi Namangan tumani bo‘limining 29.09.2023 yildagi 02/701-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv tarmog‘i qabul qilingan.

Oqava suv – “Namangan suv ta’minoti” MCHJ hududiy “Oqava tozalash” filialining 10.10.2023 yildagi 01/82-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud oqava suv tarmog‘i qabul qilingan.

Elektr ta’minoti – “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Namangan hududiy filialining 14.08.2023 yildagi 35-18/1064-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/6kV li “Shimoliy” T-1 dan chiquvchi mavjud yacheykalarga mos yacheyka o‘rnatish orqali qabul qilingan. Loyihada quvvati 250kVA bo‘lgan GKTP rusumli transformator punkti, AIISKUE tizimi o‘rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko‘zda tutilgan.

Issiqlik ta’minoti – issiqlik tarmoqlari loyihalanayotgan issiqlik qozonlaridan belgilangan.

Gaz ta’minoti – “Hududgaz Namangan” GTFning 1.09.2023 yildagi 033002-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud o‘rta bosimli gaz tarmog‘i qabul qilingan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Namangan viloyat Arxitektura va shaharsozlik Kengashining 9.11.2023 yildagi 79926-sonli xulosasi.
- Davlat ekologik ekspertizasi Markazi Namangan viloyat filialining 6.09.2023 yildagi 01-19/14-899/23-sonli xulosasi.
- Bosh reja Yangi Namangan tumani ET bilan kelishilgan.
- Xonalar joylashtirish “OBID FAYZ-BM” MCHJ bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

Tasdiqlangan topotasvir chizmasi – taqdim etildi.
Qurilishni tashkil etish loyihasi – ishlab chiqildi.
Bosh rejada binolar tasnifi – o‘zgartirildi.
Bosh rejada loyihaviy va o‘zgarmas ±0,000 sathlari – berildi.
Ayvon ishchi chizmasi – taqdim etildi.
Rasmiylashtirilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to‘g‘risida xulosa – taqdim etildi.
Umumiy tushuntirish yozuvi – qayta ishlandi.
AR-bo‘limi.
Umumiy ma’lumotlar varag‘ida TIK – ko‘rsatildi, energiya samaradorlik bo‘limi – ishlandi.
Fasad chizmasida koordinata o‘qlari – o‘zgartirildi.
Tashqi issiqlik himoya qatlami tugunlari va material hisob jadvallari – qayta ishlandi.
Yerto‘la devorlari tashqi tomondan issiqlik himoya qatlami bilan – qoplandi.
ShNQ 2.08.01-09* ga asosan savdo zallariga asosiy kirish joyida tambur – ko‘zda tutildi.
QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.1 bandiga asosan 1 qavat va yerto‘la “G-J” va “1/1-1” koordinata o‘qi seysmik chok bilan – ajratildi.
“B-B” qirqim chizmasi – o‘zgartirildi.
Derazalar chizmasida og‘mali ochilish turiga – o‘zgartirildi.
QMQ 2.03.10-19 ning 2.5 bandiga asosan profnastil tom qoplamasi tashqi uyushgan suv qochirish yechimi – ko‘zda tutildi va chizmalar – o‘zgartirildi.
ShNQ 2.08.01-19 ning 5.32 bandiga asosa tom rejasida lift shaxtasi va zina katagi alohida – loyihalandi.
ShNQ 2.08.01-19 ning 5.18 bandiga asosan balkon to‘siqlari chizmasi – o‘zgartirildi.
KJ-bo‘limi.
Kotlovan rejasida tuproqni olib chiqib ketish qiyaligi – ko‘rsatildi.
Poydevor osti QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.7 bandiga asosan bir xil sathga – keltirildi.
Qayta ishlanlagan seysmik kuchlar hisobi – taqdim etildi.
Loyihada 17÷20-varaqlarda Rg-5, 6, 7 chizmalari va tugunlari – ishlandi.
Loyihada rama va rigel tugunlari – qayta ishlandi.
Ora va tomyopma rejalarida 6,0 metr va 3,0 metr kenglikdagi koordinata o‘qlariga temir-beton plitalar o‘lchami – o‘zgartirildi.
QMQ 2.01.03-19 ning 3.1.10 bandiga asosan ora va tomyopma rejalarida diafragmaga temir-beton plitalarni bog‘lash tugunlari – ishlandi.
ShNQ 2.08.01-19 ga asosan lift shaxtasiga havo berish kanali gipsokartondan yaxlit quyma betonga – o‘zgartirildi.
Zina va lift shaxtasi tomyopmasi temir-beton plitalarga – o‘zgartirildi.
QMQ 2.03.10-19 ga asosan tom obreshetka qadami 500mm dan 250mm ga – o‘zgartirildi.
Muhandislik ta’minoti.
Ichimlik va oqavasuv ta’minoti.
Binoning energopasporti – taqdim etildi.
QMQ 2.01.04-2018 ning 2.1* bandi 2b jadvaliga muvofiq issiqlik himoyalashning ikkinchi darajasi bo‘yicha hisobi – taqdim etildi.
Yer to‘la qavati uchun tabiiy shamollatish loyiha yechimi – berildi.

Gazga ishlaydigan isitish qozoni uchun tutun tortuv quvuri – berildi va har bir qavatni birlashtirilgan gazoxod ishchi loyihalari – berildi.

QMQ 2.08.01-19 ning 5.32 bandidaga muvofiq lift shaxtasi uchun tashqi havo va tutunni haydash uchun shamollatish loyiha yechimi – berildi.

Kuchsiz tok.

ShNK2.01.02-04ning 6.1-bandi 5-bandostiga muvofiq yerto‘la va sokoldagi do‘kon va omborlar yong‘indan xabardor qilish – ko‘zda tutildi.

Ichimlik va oqavasuv ta’minoti.

Yerto‘lada ochiq holda qoldirilgan stoyaklar QMQ2.04.01-98ning 9.8 va 17.9-bandlarga muvofiq – to‘g‘rilandi.

Noturar-joy va savdo shahobchalari ShNQ2.08.01-19“Turar-joy binolariga o‘zgartirish” 6.2-bandga asosan avtomatik o‘t o‘chirish tizimi bilan – jihozlandi.

Bino qavatlarida yong‘inga qarshi suv ta’minoti tizimi bilan to‘liq jihozlash – ko‘zda tutildi.

Gaz ta’minoti.

Gaz asboblari uchun ichki gaz ta’minoti ishchi chizmasi – taqdim etildi.

ShNQ2.08.01-19“Turar-joy binolariga o‘zgartirish” 9.9-bandga asosan oshxonalar gazanalizatorli gazni o‘chiruvchi klapan bilan – jihozlandi.

Elektr qismi.

Bosh reja Yangi Namangan tumani ET bilan – kelishildi.

Tashqi yoritish tizmi – ishlab chiqildi.

Kabel tarmog‘ini binoga kirish qismi – ishlab chiqildi.

Lift qurilmasi elektr ta’minoti – bajarildi.

6.2. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.3. Ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Namangan viloyati Namangan shahar 8-mart ko‘chasi 1-uyda “Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalarini o‘z ichiga olgan ko‘p qavatli turar-joy bino inshoootlari” qurish va rekonstruksiya qilish” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Jalilov Shokirjon Zokirjonovich, Mirzayeva Muyassarxon Qodirjonovna, Tursunov Ilyosbek Yunusxonovich, Abdunazarov Nemadjon Abdurazakovich, Tursunov Doniyor Ismonjanovich